



DELOV TO‘LQIN ERKINOVICH

BULUTLI TEXNOLOGIYALAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

DELOV TO‘LQIN ERKINOVICH

BULITLI TEXNOLOGIYALAR

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan o‘quvqo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

5350400-AKT sohasida kasb ta’limi bakalavriat ta’limi
yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan.

Toshkent – 2021

UO‘K: 004.03(075.8)

KBK: 32.973

T.E.Delov. Bulutli texnologiyalar.(O‘quv qo‘llanma) .–T.: «Nihol print» OK, 2021 -196 b.

ISBN 978–9943–7343-1-9

O‘quv qo‘llanmada bulutli texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tadbiri masalalari yoritilgan. Asosiy bulutli texnologiyalar dasturiy vositalarning maqsad, vazifa va turlari, bulutli infrastruktura komponentlarini samarali tashkil etish va boshqarishni batafsil bayoniga qaratilgan. Bo‘lajak mutaxasislarning pedagogik hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatidabulutli texnologiyalarni qo‘llashning zamonaviy yondashuvlari ifoda etilgan.

O‘quv qo‘llanma 5350400- AKT sohasida kasb ta‘limi bakalavriat ta‘limi yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 004.03(075.8)

KBK: 32.973

Taqrizchilar:

T.M.Magrupov–Islom Karimov TDTU, Biyotibbiyotmuxandisligi kafedrasi, t.f.d., prof.;

J.T.Usmonov – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi, (PhD), dots.

ISBN 978–9943–7343-1-9

© «Nihol print» OK nashriyoti, 2021.

KIRISH

Kun sayin hayotimizning har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etilib, kasbiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari, kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o'tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta'lim olishdagi vazifalarimizni yengillashtiramiz. Hozirgi davrda barcha boshqa sohalar qatorida ta'lim tizimida ham turli fanlarni o'qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Keyingi davrlarda ko'plab psixologik va ilg'or pedagogik sohalarda chop etilayotgan maqolalarda, AKT talabalarlarning bilimi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi haqidagi fikrlar ta'kidlanayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

YUNESKO¹ AKT ta'limning ochiqligi va haqqoniyligini ta'minlashga, o'qitish va o'qitish sifatini oshirishga va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, tegishli siyosat, texnologiyalar va imkoniyatlarga ega bo'lgan holda, AKT ta'limni boshqarish, yetakchilik va ma'muriyatni yaxshilashga yordam beradi.

Bugungi kunda dunyoning barcha davlatlarining nigohi bizning yurtimizga qaratilgan, chunki yurtimizda barcha sohalar bo'yicha jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Misol tariqasida oliy ta'lim tizimini oladigan bo'lsak juda katta islohatlar olib borilmoqda bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga yaqqol misoldir.

“Bulitli texnologiyalar” fani talabalarga tashkilot boshqaruvida xisoblash resurslarini yanada samarali ishlatish mumkinligi; AT infratuzulmani boshqarishni takomillashtirish (shu jumladan geografik jihatdan); ish boshqaruvida doimiy soddalashtirish va qulaylashtirish, tizim konsepsiyasini zaxira tarzda saqlash va virtual mashinani

¹<https://ru.unesco.org/themes/ikt-v-oblasti-obrazovaniya>

migratsiyalash; AT infratuzilma chiqimini kamaytirish, xisoblash resurslarini, elektr quvvatlarini tejash haqida axborot berish, elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlarni saqlash va kerak bo‘lganda ulardan har qanday sharoitda foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish mumkinligi kabi masalalarni qamrab olgan.

“Bulitli texnologiyalar” fani ixtisoslik fanlar turkumiga kirib, bu Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti AKT sohasida kasb ta’limi fakultetining 3-kurs bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

“Bulutli texnologiyalari” fanidan tayorlangan o‘quv qo‘llanma ma’ruza mashg‘ulotlarni o‘tkazish, dars samaradorligini oshirish, ixtisoslik bo‘yicha bilimlarni egallash, muxandis-pedagoglarni bulutli xisoblash dasturiy vositalari bilan tanishtirish, ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish yo‘llarini qo‘rsatib berish, telekommunikatsiya, informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishi fanlarini o‘qitishda bulutli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini egallash, telekommunikatsiya, informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishi fanlarida bulutli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar oshirishga xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanmada keltirilgan mavzular ta’lim va tarbiya usullarining joriy qilinishi va bo‘lajak kadrlarning internet va bulutli texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmasi berish va malakalarni tarkib toptirish, talabalarga oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida telekommunikatsiya, informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishi fanlarini zamonaviy o‘quv texnik vositalar yordamida o‘qitishga o‘rgatish, masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini bilan tanishtirishdir. Talabalarni malakasi va mahoratini oshishiga xissa qo‘shadi hamda amaliy foydalanishda samara beradi.